XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHI QARORI

141600, Urgut tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 104-uy, 66-483-04-42

2021 - yil 30 - dekabr VI-52-111-7-105-K/21 Urgut tuman hokimligi

Urgut tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, “Budjet kodeksi”ning 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2021-yildagi kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yil mahalliy budjetining belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, navbatdan tashqari ellik ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2021-yildagi kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yil mahalliy budjetining belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2021-yildagi kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yil mahalliy budjetining belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qaroriga muvofiq, Urgut tumani mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 230 mlrd. 200 mln. 300 ming so‘m, xarajatlari 367 mlrd. 635 mln. 849 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 137 mlrd. 435 mln. 549 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga

muvofiq;

2022-yil uchun tumanning mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2022-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 137 mlrd. 435 mln. 549 ming so‘mga tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun tumanning mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 3 mlrd. 468 mln. 263 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. 2022-yil uchun tumanning mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 2 mlrd. 456,0 mln. so‘m belgilansin.

6. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

7. Qarorga muvofiq, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan soliq;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar;

ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘im;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari);

avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar viloyatning mahalliy budjeti hamda tuman mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 70 foiz miqdorda tuman budjetiga;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 30 foiz miqdorda tuman budjetiga;

mobil aloqa xizmatlari, sigaret va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov), tuman hokimligi Moliya bo‘limi (O.Qaroyev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Almasov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali

bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (X.Rashidov)larga:

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yarbaboyev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Rashidov X. M.**

Халқ депутатлари Ургут туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-52-111-7-105-K/21-сон қарорига
1-илова

Urgut tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	Summa (ming so‘m)
		Jami summa: 230 200 300,0
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	61 280 100,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 457 800,0
3	Korxonalar aylanmasidan soliq	19 800 000,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 209 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 254 000,0
6	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	800 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 113 000,0
8	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	66 400,0
9	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 701 000,0
10	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 909 000,0
11	Yuridik shaxslar yer solig‘i	14 080 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 902 000,0
13	Yig‘imlar	1 042 000,0
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pizo	32 014 000,0
15	Mobil aloqa xizmati	18 239 000,0
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	34 333 000,0

Халқ депутатлари Ургут туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-52-111-7-105-K/21-сон қарорига
2-илова

2022-yil uchun tumanining mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet ajratmalarining cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Summa (ming so‘m)
Urgut tumani bo‘yicha xarajatlari miqdori jami summa:		**367 635 849,0**
1.	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	15 903 281,0
2.	Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi	19 386 750,0
3.	Tuman Tibbiyot birlashmasi	134 492 932,0
4.	Tuman Madaniyat bo‘limi	4 466 434,0
5.	Tuman Turizim va sport bo‘limi	3 501 396,0
6.	Tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi	715 437,0
7.	Tuman hokimligi	182 801 141,0
8.	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 965 030,0
9.	Tuman hokimligi Moliya bo‘limi	829 937,0
10.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Urgut tumanidagi muassasalari	516 778,0
11.	Tuman Irrigatsiya bo‘limi	750 830,0
12.	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 439 801,0
13.	Xalq deputatlari tuman Kengashi	181 500,0
14.	Tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	684 602,0